

## MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR QIZIQISHLARINI OSHIRISH

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Magistratura bo'limi pedagogika ta'limga  
yo'nalishi I-kurs I-24-02 guruh talabasi  
Mutalibova Muqaddasxon Abdunabi qizi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy ta'limga jarayonida talabalar bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Ta'limga an'anaviy shaklidan farqli ravishda, masofaviy ta'limga talabaning mustaqil o'r ganish ko'nikmalari, motivatsiyasi va interaktiv vositalardan foydalanish darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, gamifikatsiya, vizual kontentlar, muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar va onlayn muloqotlar orqali talaba faolligini oshirish usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari masofaviy ta'limga samaradorligini oshirish va talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Masofaviy ta'limga, talaba faolligi, o'quv motivatsiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ta'limga samaradorligi, onlayn o'quv muhit, mustaqil ta'limga

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'limga tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, pandemiya davridan so'ng dunyo bo'yicha masofaviy ta'limga keng joriy etildi va bu holat o'quv jarayonining yangi shaklini shakllantirdi. Masofaviy ta'limga asosiy afzalliklari qulaylik, mustaqillik, o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyati bo'lsa-da, bu jarayonda talabalar faolligi va o'quv motivatsiyasini doimiy saqlab qolish muhim muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada masofaviy ta'limga talabalar qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar haqida fikr yuritiladi. [1].

### *Talaba qiziqishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar*

Masofaviy o'quv jarayonida talabalar an'anaviy darslardagidek o'qituvchi bilan bevosita muloqotda bo'la olmaganligi sababli, ularning darsga qiziqishini ta'minlashda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- O'quv motivatsiyasi – talabani o'qishga undovchi ichki va tashqi rag'batlar.
- O'quv muhiti sifati – foydalanilayotgan platformalarning texnik qulayligi va funkcionalligi.

- O‘quv materiali dizayni – vizual jihatdan jozibador, tushunarli va interaktiv bo‘lishi.
- O‘qituvchining yondashuvi – darslarni jonli, muomala asosida olib borishi.

### *Zamonaviy yondashuvlari va metodlar*

#### a) Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)

Gamifikatsiya — bu ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘sishish orqali talabalarni faollashtirish va ularning qiziqishini oshirish strategiyasidir. Masalan:ball to‘plash tizimi, reytinglar va turnir jadvallari, sertifikatlar, badge (nishon)lar orqali rag‘batlantirish.Gamifikatsiya raqobat muhitini yaratadi va motivatsiyani oshiradi.[2].

#### b) Interaktiv metodlar

Masofaviy darslarda passiv eshituvchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishga undovchi metodlar:Onlayn forumlar va muhokamalar, Test va viktorinalar, Keys-stadi, “miya shturmi”, guruhli ishlanmalar,Virtual laboratoriylar va simulyatsiyalar

#### c) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

AKT vositalari — Zoom, Moodle, Google Meet, Edmodo, MS Teams — orqali:Ekran bilan bo‘lishish, real vaqtli suhbat, topshiriqlarni yuklash, avtomatik baholash, fikr almashish uchun muhokama maydonchalari

#### d) Vizual kontentdan foydalanish

Vizual materiallar o‘quvchilarda tezroq tushunish va eslab qolish imkonini beradi:Video darslar, infografikalar, diagrammalar, animatsiyalar va interaktiv slaydlar

### *Mustaqil ta’lim va refleksiya*

Masofaviy ta’lim sharoitida talaba o‘z bilim olish jarayonining markazida bo‘ladi. Bu esa quyidagilarni talab qiladi:o‘z-o‘zini boshqarish va rejulashtirish, mustaqil izlanish olib borish, portfolio yuritish refleksiya — o‘z faoliyatini tahlil qilish [3].

### **Xulosa**

Masofaviy ta’lim — zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, unda talabalar qiziqishini oshirish ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Ushbu jarayonda o‘qituvchilar tomonidan interaktiv yondashuvlari, gamifikatsiya elementlari, AKT imkoniyatlari va vizual kontentni to‘g‘ri qo’llash orqali talabalarni faollashtirish mumkin. Shuningdek, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish orqali talaba o‘z bilimining egasi bo‘lishi mumkin. Shu sababli, masofaviy ta’lim nafaqat zarurat, balki yangi imkoniyatlar maydoni sifatida qaralishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xusanov B. "Masofaviy ta’lim: imkoniyatlar va muammolar". – Toshkent: TDPU, 2021.
2. Qodirova N. "Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar", – T.: Ilm ziyo, 2020.
3. Hamidova D. "Talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirish metodikasi", – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.